



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(7)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 58 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari	10
Abdullajonova Bashorat Olim qizi	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni	13
Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida	17
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	21
Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	26
Madumarov Jahongir Urinbayevich	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli	29
Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari	33
Teshaboyev Akramjon Yuldashevich	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir	39
Turdibekova Risolat Shermatovna	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati	42
Tursunova Durdona	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari	46
Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi	49
Yusupova Muxabbat Anatolevna	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов	53
Рысова Галия Байбулатовна	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI: KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA

UDK: 373.2:316.77

Boybo'riyeva Saodat O'ralovna

Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
maktabgacha ta'lim yo'nalishi metodisti

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqotning markazida kompetensiyaviy yondashuv asosida bolalar muloqot madaniyati darajasini baholash uchun ishlab chiqilgan uch tayanch ustunli – kognitiv, affektiv va xulq-atvor mezonlari tizimi yotadi [5]. Faol tinglash madaniyatini shakllantirish maqsadida “Quloq solish – Qabul qilish – Qayta so'rash” bosqichlaridan iborat “3Q” texnologiyasi asoslab berilgan [6]. Muloqot jarayoni semantik, grammatik, akustik va motor komponentlarga ajratilib, ularning ichki va tashqi ko'rinishlari o'rtasidagi bog'liqlik dasturiy tahlil asosida yoritilgan. Olingan nazariy natijalar negizida bolalarni zeriktirmaydigan, o'yin shaklidagi kommunikativ mashqlar va topshiriqlar to'plami, shuningdek, “Odobli bolajon” nomli mualliflik o'yin-multimedia platformasi yaratilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyotida muloqot odobini o'rgatishning samarali vositasi sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, maktabgacha yoshdagi bolalar, muloqot madaniyati, kommunikativ kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, kognitiv mezon, affektiv mezon, xulq-atvor mezon, faol tinglash, “3Q” texnologiyasi, kommunikativ mashqlar, o'yin texnologiyalari, multimedia vositalari, o'yin-multimedia platformasi, “Odobli bolajon”, pedagogik texnologiyalar, nutq madaniyati, ijtimoiy moslashuv.

Abstract: This article analyzes contemporary pedagogical approaches to the formation and development of communication culture among preschool children. The study focuses on a three-pillar assessment framework based on the competency-based approach, consisting of cognitive, affective, and behavioral criteria for evaluating children's communication culture [5]. To foster active listening skills, the study proposes the “3Q” technology, which includes three sequential stages: “Listen – Receive – Ask Again” [6]. The communication process is examined through four components—semantic, grammatical, acoustic, and motor—while the relationship between their internal and external manifestations is explained through program-based analysis. Based on the theoretical findings, a set of game-based communicative exercises and tasks, as well as the author-developed multimedia game platform “Odobli bolajon,” were created. The research findings are recommended for practical application in preschool education institutions as an effective tool for developing communication culture among preschool children.

Key words: preschool education, preschool children, communication culture, communicative competence, competency-based approach, cognitive criterion, affective criterion, behavioral criterion, active listening, “3Q” technology, communicative exercises, game-based learning, multimedia tools, multimedia game platform, “Odobli bolajon”, pedagogical technologies, speech culture, social adaptation.

Аннотация: В статье проанализированы современные педагогические подходы к формированию и развитию культуры общения у детей дошкольного возраста. В центре исследования находится разработанная на основе компетентностного подхода система трёх базовых критериев (когнитивного, аффективного и поведенческого) для оценки уровня сформированности культуры общения у детей [5]. С целью формирования культуры активного слушания обоснована технология “3Q”, включающая три последовательных этапа: “Слушать – Воспринимать – Переспрашивать” [6]. Процесс общения рассмотрен через семантический, грамматический, акустический и моторный компоненты, а взаимосвязь их внутренних и внешних проявлений раскрыта на основе программного анализа. На основе полученных теоретических результатов разработаны комплекс коммуникативных игровых упражнений и заданий, а также авторская игровая мультимедийная платформа “Odobli bolajon”. Полученные результаты рекомендуются к практическому использованию в деятельности организаций дошкольного образования как эффективное средство формирования культуры общения у детей.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети дошкольного возраста, культура общения, коммуникативная компетентность, компетентностный подход, когнитивный критерий, аффективный критерий, поведенческий критерий, активное слушание, технология “3Q”, коммуникативные упражнения, игровые технологии, мультимедийные средства, мультимедийная игровая платформа, “Odobli bolajon”, педагогические технологии, культура речи, социальная адаптация.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, shaxslararo munosabatlar madaniyati va ta'lim sifatiga qo'yilgan talablar maktabgacha yoshdan boshlab bolalarda muloqot madaniyatini izchil shakllantirishni dolzarb pedagogik vazifaga aylantirmoqda. Muloqot madaniyati – shaxsning nutq, hissiy va xulq-atvor jihatlarini o'zida mujassam etgan integrativ sifat bo'lib, u bolaning kelajakdagi ijtimoiy moslashuvi, ta'limdagi muvaffaqiyati va shaxslararo munosabatlari samaradorligini belgilab beradi [5].

Muloqot va nutq psixologiyasi sohasidagi klassik tadqiqotlar (jumladan, L. S. Vigotskiyning nutq va tafakurning o'zaro bog'liqligi haqidagi g'oyalari [1], M. I. Lisinaning bolalar muloqotining ontogenetik bosqichlari haqidagi tadqiqotlari [2]) muloqot ko'nikmalarining maktabgacha yoshda jadal shakllanishini ko'rsatib bergan.

Shu bilan birga, amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy tarbiya metodikasida muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'pincha epizodik, tizimlashtirilmagan va faqat nutq texnikasiga qaratilgan tarzda olib boriladi, bolaning hissiy-baholovchi hamda xulq-atvor jihatlari esa e'tibordan chetda qolib ketadi [5, 6]. Ushbu ziddiyat – bir tomondan, kompetensiyaviy yondashuv asosida bolalarning muloqot madaniyatini har tomonlama (bilim, munosabat va xulq-atvor birligida) rivojlantirish zarurati, ikkinchi tomondan, bunga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan mezonlar tizimi, texnologiyalar hamda o'yin-multimedia vositalarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi – mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyati va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muammosi uzoq yillardan buyon psixolog va pedagog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bola shaxsining rivojlanishida muloqotning yetakchi o'rni va uning ijtimoiy xarakteri L. S. Vigotskiy [1], muloqotni faoliyat sifatida talqin etish esa M. I. Lisina [2] va A. A. Leontyev [3] kabi olimlarning fundamental tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Respublikamiz pedagog olimlaridan F. R. Qodirova, Sh. A. Sodiqova, M. E. Jumayev va boshqalar maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish, muloqot malakalari hamda ijtimoiy moslashuv muammolarini milliy pedagogik kontekstda tadqiq etganlar [5, 6].

Biroq tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini baholashning yaxlit mezonlar tizimi hamda faol tinglash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi raqamli va interaktiv platformalardan foydalanish metodikasi yaxlit tizim sifatida yetarlicha tadqiq etilmagan. Ushbu maqolada taklif etilayotgan “Odobli bolajon” mualliflik platformasi va “3Q” texnologiyasi aynan shu ilmiy-metodik bo'shliqni to'ldirishga qaratilganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, qiyosiy-tahliliy metod, pedagogik kuzatish, mezonlashtirish (kriterializatsiya) hamda modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Mezonlar tizimini ishlab chiqishda kompetensiyaviy yondashuvning uchta klassik tarkibiy qismi – bilim (kognitiv), munosabat (affektiv) va ko'nikma (xulq-atvor) – asos qilib olindi [9]. “3Q” texnologiyasi faol tinglash psixologiyasi bo'yicha mavjud nazariy modellarni maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirish yo'li bilan ishlab chiqildi. Tadqiqotning maqsadi – kompetensiyaviy yondashuv asosida maktabgacha yosh-



dagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan mezonlar tizimini, pedagogik texnologiyani va kommunikativ mashqlar to'plamini ishlab chiqish hamda ularni o'yin va multimedia vositalari orqali amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ilmiy asoslashdan iborat.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Bolalar muloqot madaniyati darajasini baholashga doir mavjud ilmiy-uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish;
2. Kognitiv, affektiv va xulq-atvor ustunlariga asoslangan mezonlar tizimini ishlab chiqish;
3. Faol tinglash madaniyatini shakllantirish uchun "3Q" texnologiyasini asoslab berish;
4. O'yin shaklidagi kommunikativ mashqlar va topshiriqlar to'plamini ishlab chiqish;
5. Muloqot jarayonining semantik, grammatik, akustik va motor komponentlari bo'yicha dasturiy tahlil o'tkazish;
6. Natijalar asosida "Odobli bolajon" o'yin-multimedia platformasi konsepsiyasini shakllantirish.

Muloqot jarayonining tarkibiy tahlili strukturaviy-funksional yondashuv asosida nutq faoliyatining to'rt komponenti (semantik, grammatik, akustik va motor)ni ajratish orqali amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari asosida bolalarga o'yin va multimedia vositalari orqali muloqot odobini o'rgatishga mo'ljallangan "Odobli bolajon" nomli mualliflik platformasi konsepsiyasi ishlab chiqildi. Platformaning pedagogik g'oyasi kompetensiyaviy yondashuvning zamonaviy talablariga muvofiq bolaning muloqot madaniyatini bilim, hissiy munosabat va amaliy ko'nikmalar birligida interaktiv o'yin vaziyatlari orqali rivojlantirishdan iborat. Platforma tarkibiga quyida tavsiflanadigan mezonlar tizimi, "3Q" texnologiyasiga asoslangan mashqlar hamda dasturiy-komponentli tahlil natijalari o'zaro uzviy bog'liq holda kiritildi. Bolaning muloqot madaniyati darajasini obyektiv aniqlash uchun uchta tayanch ustunga asoslangan mezonlar tizimi belgilandi (1-jadval). Mazkur tizim bolaning muloqotga oid bilimlarini, hissiy-qadriyatli munosabatini va amaliy xulq-atvorini yagona, o'zaro bog'liq butunlik sifatida baholash imkonini beradi.

1-jadval: Bolalar muloqot madaniyatini baholash mezonlari tizimi

Tayanch ustun	Mazmuni	Asosiy diagnostik savol
Kognitiv	Muloqot qoidalari, odob normalari va nutq formulalari haqidagi bilimlar	Nima deyish kerak?
Affektiv	Suhbatdoshga hissiy munosabat, ohang, mehr-oqibat va madaniy xulq	Qanday ohangda va qanday munosabat bilan?
Xulq-atvor	Muloqot qoidalarini amaliyotda qo'llash, harakat va imo-ishoralar madaniyati	O'zini qanday tutish kerak?

Uchta ustunning birgalikda qo'llanilishi bolani faqat "to'g'ri so'zlarni bilish" darajasida emas, balki muloqotga hissiy jihatdan to'g'ri munosabatda bo'lish va amaliy vaziyatlarda madaniy xulq-atvorni namoyon etish darajasida ham baholash imkonini beradi. Bu esa diagnostikaning obyektivligini sezilarli darajada oshiradi. Muloqot madaniyatining muhim, ammo amaliyotda ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan jihatlaridan biri faol tinglash ko'nikmasidir. Tadqiqot doirasida ushbu ko'nikmani izchil shakllantirish maqsadida uch bosqichli "3Q" texnologiyasi – "Quloq solish", "Qabul qilish", "Qayta so'rash" – ishlab chiqildi (2-jadval).

2-jadval: Faol tinglashni shakllantiruvchi "3Q" texnologiyasining bosqichlari

1. Quloq solish	Diqqatni suhbatdoshga jamlash	Bolada vizual kontakt, jismoniy yo'nalganlik va diqqatni boshqa narsalardan chalg'itmaslik ko'nikmasini shakllantirish
2. Qabul qilish	Eshirilgan axborotning mazmunini anglash	Eshitilganni o'z so'zi bilan qayta aytib berish, asosiy fikrni ajratish ko'nikmasini rivojlantirish
3. Qayta so'rash	Tushunmagan jihatlarni aniqlashtirish	Savol berish madaniyatini, muloyim shaklda aniqlashtiruvchi murojaat qilish ko'nikmasini tarbiyalash

Texnologiyaning izchilligi bolada avval diqqatni jamlash, so'ngra mazmunni anglash va nihoyat, tushunilmagan jihatlarni madaniy shaklda aniqlashtirish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir bosqich tegishli o'yin mashqlari orqali mustahkamlanadi hamda keyingi bosqichga o'tish uchun zamin yaratadi. Yuqorida tavsiflangan mezonlar tizimi va "3Q" texnologiyasi asosida bolalarni zeriktirmaydigan,

o'yin tarzida tashkil etiladigan yangi avlod kommunikativ mashqlari va topshiriqlari to'plami yaratildi. To'plamga kiritilgan mashqlar quyidagi tamoyillarga asoslanadi: vaziyatga asoslanganlik (real muloqot vaziyatlarini model-lashtirish), o'yin orqali o'rgatish (didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar va multimedia elementlaridan foydalanish), bosqichma-bosqichlik (oddiydan murakkabga o'tish) hamda individuallashtirish (bolaning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish).

Mashqlar tizimi bolaning kognitiv, affektiv va xulq-atvor komponentlari bo'yicha bir vaqtning o'zida rivoj-lanishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Muloqot jarayonini chuqur va tizimli o'rganish maqsadida u to'rt asosiy komponentga – semantik (ma'no), grammatik (tuzilish), akustik (tovush) va motor (harakat) komponentlariga – ajratildi. Har bir komponentning ichki (psixologik-mental) va tashqi (kuzatiladigan) ko'rinishlari o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi (3-jadval). Bu esa nazariy modelni amaliy diagnostika hamda mashqlar tizimiga bevosita tatbiq etish imkonini berdi.

3-jadval: Muloqot jarayonining komponentlari va ularning ichki/tashqi ko'rinishlari

Komponent	Ichki ko'rinishi	Tashqi ko'rinishi
Semantik (ma'no)	So'z va iboralarning mazmunini ichki anglash, fikrni shakllantirish	Aytilgan gapning mazmunan to'g'ri va vaziyatga mos bo'lishi
Grammatik (tuzilish)	Gap qurish qoidalarini ichki egallash	Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi
Akustik (tovush)	Tovush va ohangni ichki sezish, eshitib farqlash	Talaffuz, ovoz balandligi va intonatsiyaning madaniy me'yorlarga mosligi
Motor (harakat)	Imo-ishora va yuz ifodasini ichki nazorat qilish	Tashqi xulq-atvor: qarash, jest, turish-o'tirish madaniyati

Komponentlarning ichki va tashqi ko'rinishlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash pedagoglarga bolada qaysi komponent (masalan, akustik yoki motor komponenti) bo'yicha qiyinchilik mavjudligini aniq tashxislash hamda shu asosda individual yo'naltirilgan mashqlarni tanlash imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kompetensiyaviy yondashuv asosida innovatsion pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta'lim jarayoniga joriy etish bolalarda muloqot madaniyatini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan mezonlar tizimi, "3Q" texnologiyasi hamda "Odobli bolajon" o'yin-multimedia platformasi bolalarda kommunikativ kompetensiyani, faol tinglash ko'nikmalarini va ijtimoiy muloqot madaniya-tini shakllantirishning samarali vositalari ekanligi asoslandi. Mazkur ishlanmalardan maktabgacha ta'lim tashki-lotlari amaliyotida foydalanish ta'lim sifati va tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
2. Лисина М. И. Общение, личность и психика ребёнка. – М.: Изд-во "Институт практической психологии", 1997. – 384 с.
3. Леонтьев А. А. Психология общения. – М.: Смысл, 1997. – 365 с.
4. Эльконин Д. Б. Психология игры. – М.: Владос, 1999. – 360 с.
5. Boybo'riyeva S. O'. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari" // FarDU xabarleri. – 2023. – № 3. – B. 142-145.
6. Boybo'riyeva S. O'. "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi muloqot vositasi sifatida" // Bola va zamon. – 2022. – № 4. – B. 45-48.
7. Boyburiyeva S. U. "Educational Games in the Education of Communication Culture of Preschool Children" // Indonesian Journal of Innovation Studies. – Vol. 19, 2022. – P. 6-9.
8. Boyburiyeva S. U. "Technologies for Activating the Process of Communication Culture Formation among Preschool Children" // American Journal of Research. – Vol. 2, 2023. – P. 69-73.
9. Бойбуриева С. У. Педагогические условия воспитания культуры общения дошкольников средствами коммуникативной технологии // Астраханский государственный университет. – 2023. – С. 89-93.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(7)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.